



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

IJTIMOIIY IQTISODIY FAKULTETI

“Tarix” yo`nalishi


**2 “V” – guruh talabasi Miyliyev Muxriddinning
“ O`rta asr tarixi” fanidan**

Referati

Tekshirdi :

.

Buxoro – 2016



Reja:

1. *O`rta Osiyo bilan Hindiston o`rtasidagi munosabatlar*

2. *O`rta Osiyo bilan Hindiston xalqlari o`rtasidagi siyosiy aloqalar*

O`rta Osiyo bilan Hindiston o`rtasidagi munosabatlar juda qadimiy davrlardan boshlangan bo`lib, bu munosabatlar dastlab iqtisodiy (savdo) aloqalarda, so`ngra madaniy va siyosiy aloqalarda o`z ifodasini topgan.

Buyuk geograf Strabon va Rim tarixchisi Pliniyaning ma`lumotlariga ko`ra eng qadim vaqtlarda Hindiston va Xitoyda ishlab chiqariladigan qimmatbaho tovarlar zira, dolchin, nil bo`yog`i, qora dori, fil suyagi, marvarid, olmos, ipak gazlamalari, bronza, chinnilar O`rta Osiyo orqali Vizantiya va Rimga olib borilgan.

Strabonning yozishicha, makedoniyalik Aleksandr (Iskandar Zulqarnayn)ning O`rta osiyo, Afg`oniston va Hindistonga yurishlarini kuzatib borgan Aristotel Baqtriya (Balx) ga yaqin yerda Oks (Amudaryo) dan o`tgan (eramizdan oldin 329 yili) va u “Oks kemalar qatnashi uchun juda qulay. Bu daryo orqali hind mollari Girkin (Kaspiy) dengizi va bu daryodan qo`shni o`lkalar orqali Evkin Pontga keltiriladi”¹, deb yozgan.

X asrda yashagan arab geografi Almakdisi Rossiya va Volgaga, bu yerda O`rta Osiyoga hamda Xorazm orqali Hindistonga olmaxon, oq savsar, sassiq kuzan, tulpi, qunduz va quyon mo`ynalari, echki terisi, shuningdek: sham, kamon o`qi, oq terak po`stlog`i, baliq yelimi, baliq tishi, kanakunjut moyi, anbar, oshlangan teri, asal va qilich, slavyan qllar va boshqa tovarlar olib borilardi, deb ko`rsatadi.

Fransisko Lopets de Gomarning yozishicha, hind mollari avval suv yo`li –Hind okeani orqali, so`ngra Balxgacha tuyalarda va Oks daryosi orqali Kaspiy dengiziga u yerdan astraxanga keltirilgan. Astraxandan esa kemalarda Volga orqali Donga, u yerdan daryo bilan Tanga va dengiz orqali Kaffaga keltirilgan¹.

Temur askarlari tomonidan 1395 yili Astraxanning vayron qilinishi O`rta Osiyo orqali olib boriladigan xalqaro savdoga qattiq zarba berdi. Ayni damda Vasko da Gama Hindistonga Afrikani aylanib o`tadigan suv yo`lini topdi. Bu esa O`rta Osiyo orqali olib boriladigan xalqaro savdoning to`xtab qolishiga sabab bo`ldi. O`rta Osiyo va qo`shni Hindiston, Afg`oniston va Eron bir –birlari bilan iqtisodiy (savdo) aloqalarida bo`lib keldilar. XV-XX asrlarda O`rta Osiyo yana qo`shni Sharq mamlakatlarini, Rossiya bilan savdo aloqalarida vositachilik rolini o`ynay boshlaydi.

O`rta Osiyo bilan Hindiston xalqlari o`rtasidagi siyosiy aloqalar o`zining ming yillik tarixiga ega. Bu mamlakatning qalqlari og`ir tarixiy davrlarda o`zaro siyosiy hamjihatlik ham qilganlar. Bunday siyosiy hamjihatlikni ayniqsa Chingizxon boshliq mo`ng`ul ko`chmanchi bosqinchlariga qarshi kurashda yaqqol ko`rish mumkin. Mo`ng`ullar O`trar, Samarqand va O`rta Osiyodagi boshqa shaharlarni vayron qilib Xorazm davlati territoriyasini bosib olganlaridan keyin, Xorazm shohi Muhammad II ning o`g`li Jaloliddin mo`ng`ullarga qarshi kuch to`plash maqsadida 1221 yilda Afg`onistonga so`ngra Hindistonga borib afg`on va hind knyazlaridan umumiy dushmanga qarshi kurashda yordam ko`rsatishni so`raydi. Bunga javoban hind va afg`on knyazlari Agrak Malik, A`zam Malik (Peshovardan) va Yamin Malik boshliq yigirm ming kishidan ortiq qo`shini bilan Jaloliddin boshliq katta armiyaga kelib qo`shiladi².

O`rta Osiyo bilan Hindiston o`rtasidagi siyosiy aloqalar XV-XVI asrlarda ham ma`lum izchillik bilan davom etadi. Ma`lumki, XV asrdan XVI asr boshlarigacha O`rta Osiyo, hozirgi Afg`oniston va Eron territoriyasi temuriylar davlati sostaviga kirgan edi. Temuriylar davlati qo`shni mamlakatlar –Xitoy, Hindiston va Turkiya sultonligi bilan siyosiy aloqa o`rnatgan edi. Temuriylar ayniqsa Shohruh davlati vaqt –vaqti bilan Hindistonning siyosiy hayotiga aralashib ham turar edilar. Chunonchi, temuriylar davlatining Hindistonga yuborgan Kamoliddin Abdurazzoq Samarqandiy boshliq elchilari temuriylar davlati bilan Hindiston o`rtasidagi siyosiy aloqalar mustahkamlashda katta rol o`ynadi. Mashhur tarixchi va zamonasining buyuk davlat arbobi Kamoliddin Abduazzoq Samarqandiy (1413 yili Hirot shahrida tug`ilgan) Eron va Turon hokimi Shohruh saroyining yaqin kishilaridan hisoblanib, ko`pincha elchilik vazifasini o`tagan. Abdurazzoq Samarqandiy 1442 yili Hindistonga, 1447 yili Gilonga elchi qilib yuborildi. U Shohruh vafoti oldidan Misrga elchi qilib tayinlangan bo`lsa ham ammo Shohruhning o`limi va mamlakatda siyosiy vaziyatning o`zgarib ketishi natijasida bu sharaflı vazifani bajara olmadi¹.

Shohruh davlatining ichki va tashqi siyosati bilan yaqindan tanish bo`lgan Abdurazzoq Samarqandiy ilmiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo`lgan ikki tomlik “Matlaussa`dayn va majmaul bahrayn” (“Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo`shilishi”) nomli asarini yaratdi.

Ma'lumki, 1442 yili Shohruh tomonidan Hindistonga elchi qilib tayinlangan Abdurazzoq Samarqandiy, elchilik sostaviga kirgan boshqa kishilar bilan birga, Hirotdan Kermon orqali Jerun (Xo`rmuz)<sup>2</sup> ga yetib keladi. Bu yerda ikki oycha turib, so`ngra Maskatga yaqin Kaloxot degan joyga keladi va elchilar issiqdan betoblanib qolganligi sababli, bu yerda to`rt oy turadi. Nihoyat, u o`z odamlari Bilan O`mmo (Arabiston) dengizi orqali Hindistonning Kolikut somrisi (hokimi) o`z saroyida qabul qiladi. Bu haqda Abdurazzoq Samarqandiy shunday deb yozadi: "... Men boshqa hindlarga o`xshash yarim yalong`och bir kishini (podshohni) ko`rdim. Ujoyning podshohini somri der ekanlar .... Men somrining huzuriga kirganimda, u yerda 2 -3 ming hind o`tirgan edi, saroy maqtovgga arziydigan darajada yasatilgan edi. Kolikutda yashovchi musulmonlarning kattasi ham shu yerda hozir bshlib, u menga joy ko`rsatdi. Hoqon Said hazratlari (Shohruh) ning nishonlarini somriga o`qib berdilar va men sovg`aga keltirilgan ot, tillado`zi ko`ylak va kulohi navruzilarni topshirdilar".

Abdurazzoq Samarqandiy bir necha vaqt Kolikutda turib, so`ngra u yerdan Bijonagar<sup>1</sup> shahriga boradi. "G`oyat katta va obod bir shahar , -deb yozadi Samarqandiy -uning podshohi kamolga yetgan saltanatli hukmdor ekan. Uning ko`p viloyatlarining yeri yaxshi ishlangan va hosildor. 300 dan ortiq hammasi bir -biriga baravar bandarlarga, 1000 dan ortiq tog`dek baland va dev ko`rinishli filga, 11 lak<sup>2</sup> lashkarga ega...Bu mamlakatda podshohni "ray" deb ataydilar. Braxmanlar uning oldida hammadan ko`ra muqaddamdirlar... O`z hikoyalarida ray va brahmanlar xususida so`zlovchi "Kalila Dimna" kitobi shu mamlakat donolari hikmatlarining natijasidandir...

... Bijonagar shahri shunday o`rnashganki, uning atrofida bir -birini o`ragan yetti shahar istehkomi qurilgan. Tashqi istehkom bo`ylab 50 gaz kenglikdagi yerning hammasiga odam bo`yicha keladigan toshlarning yarmini yer yuzida qoldirib ko`m qo`yganlar...

Bozorlar nihoyatda keng va uzun. Gulfurushlar do`konlarning oldiga baland -baland taxtalar qo`yib, har ikki tarafga qarab gul sotadilar. Bu shaharga hushbo`y, yangi -yangi gullarni uzluksiz keltirib turadilar. Chunki ular gulni zarur taomdek hisoblaydilar va gulsiz sabr -toqat qilib tura olmaydilar. Har bir jamoatning savdogarlari bir -biriga

yondosh do`konlarga egalar. Javharfurushlar yoqut, marvarid, olmas, va zumradlarni bozorda oshkora sota beradilar...


Bu mamlakat shunday farovonki, buning sharhini gapirib tamomlab bo`lmaydi. Podshohning hazinasida hovuzga o`xshagan uylar bo`lib, ularning har birida eritib, bir yaxlit bo`lakka aylantirilgan oltin solibqo`yilgan. Mamlakatning barcha amaldorlari, avomlari va bozordagi hunarmandlari ham javharlar va qimmatbaho toshlarni quloqlariga, gardanlariga, bilaklariga taqib yuradilar”¹.

Bijonagar rayi Hirot elchilarini juda yaxshi qarshi oladi, u har haftada ikki marta Abdurazzoq Samarqandiy bilan uchrashib, Shohruh davlati haqida, Eron va Turonda yashovchi xalqlar, ularning urf –odatlariga haqida suhbatlashadi. Abdurazzoq bilan ray va uning yaqin kishilari o`rtasida samimiy munosabatlar o`rnatiladi. Abdurazzoq Samarqandiy Bijonagar rayining iltifot bilan qaraganini mamnuniyat bilan tilga oladi. “Men havoning issiqligidan va kiyimlarimning ko`pligidan terlab ketgan edim, -dey ko`rsatadi. Abdurazzoq Samarqandiy o`zining ray bilan birinchi uchrashgani haqida, -ki (ray) o`z qo`lidagi xitoy yelpig`ichini inoyat qilib menga tutqazdi”.

Abdurazzoq Samarqandiyning yozishicha, Bijonagar hokimi elchilarning kundalik harajati uchun ko`p pullar berib turgan va o`z mamlakatiga qaytish oldidan ularga katta tortiqlar qilgan. Samarqandiy boshliq elchilar 1443 yilning noyabrida Shohruh davlatiga Bijonagar podshohi tomonidan tayin qilingan hind elchilari Bilal birga yo`lga chiqadilar va Mangalor –Xo`rmuz orqali 1445 yilning yanvarida Hirotga yetib keldilar.

Abdurazzoq Samarqandiy o`zining “Matlaussa`dayn” asarida Hindistonning ijtimoiy hayotiga, hindlarning urf–odatlariga, xo`jalik, savdo-sotiq ishlariga oid qimmatli ma`lumotlarni keltiradi. Uning yozishicha, XV asrda Hindistonning ba`zi rayonlarida patriarxal qoldiqlari saqlangan, podshoh o`lgandan keyin uning taxtini marhumning o`g`li yoki singlisining bolalari egallashi shart bo`lgan. Bir ayolning samuri (Samuri) qabilasi ichida bir qancha erlarga xotin bo`lish hollari ham uchragan². Hindlar qoramolni ilohiy kuch deb bilib, unga sig`inganlar.

Samarqandiy o`z kitobida Osiyo davlatlarining o`zaro yaqin iqtisodiy –savdo aloqalarida bo`lganliklari haqida so`zlab, Jerun (Xo`rmuz) bu munosabatlarning markazi




deb ko'rsatadi. Uning yozishicha, Jerunga yil sayin bir tomondan Misr, Suriya, Rik, Ozarbayjon, Eron, Iroq, Xuroson, Movarounnahr, Turkiston, Dashti Qipchoq va qolmiqlar yurtidan, ikkinchi tomondan, Xitoy, Bengaliya va Selondan savdogrlar kelib, oylab savdo-sotiq ishlari va mol almashish bilan shug'ullanganlar.

Shunday qilib, Abdurazzoq Samarqandiy o'z asarida Hindiston tarixi, ekonomikasi va xalqlarining madaniyatiga oid ma'lumotlar beribgina qolmay, balki Osiyo mamlakatlari o'rtasida qadim zamonlardan buyon davom etib kelgan iqtisodiy hamkorlik to'g'risida ham original va qimmatli materiallar keltirgan.

Abdurazzoq Samarqandiyning Hindiston haqida keltirgan ma'lumotlari ilmiy jihatdan qimmatli bo'lgani uchun asarning bu qismini fransuz tiliga (1843 yili Katrm tomonidan) va ingliz tiliga (1872 yili Elliot tomonidan) tarjima qilingan.

Temuriylar davlati XV asr oxirlariga kelib inqirozga yuz tutdi. Hozirgi Afg'oniston, Eronning sharqiy va markaziy rayonlarida so'ngi temuriylardan Husayn Boyqaro sultonlik qilayotgan zamonda Movarounnahr (O'rta Osiyo) da temuriy lar o'rtasida o'zaro feodaol kurashlar kuchaymoqda edi. Movarounnahrda markazlashgan kuchli davlat yo'q edi. Bu hol Shayboniyxon boshliq o'zbek ko'chmanchi qabilalarining Movarounnahrni Boyqaro o'limidan so'ng Xurosonni egallab olishlarga imkon berdi. Shayboniyxonga qarshi kurashayotgan temuriylardan biri –Farg'ona hokimi Bobur kurashda yengilib, Afg'oniston tomonga qochib ketishga majbur bo'ldi. Boburning Movarounnahrda o'z hokimiyatini o'rnatish uchun qilgan keyingi urinishlari natijasida tugadi . Movarounnahrda shayboniylar hukmronligi o'rnatildi. Bobur esa Afg'onistonning G'ozna viloyatida o'rnamshib olib, u yerdan Hindistonga ko'p hujumlar qilib turdi. Hindistonda o'sha vaqtda markazlashgan davlatning bo'lmaganligi (Boburning ko'rsatishicha, mayda raj va knyazliklarni hisobga olmaganda, Hindiston territoriyasida beshta musulmon, ikkita hind podshohi va knyazliklari mavjud bo'lgan) Bobur qo'shinlari tomonidan Hindistonni bosib olishni osonlashtirdi. Dehli sultonligining yerlari 1525 yilda Bobur qo'liga o'tdi. Shunday qilib, Hindistonda yangi, tarixda "Buyuk mo'g'ul imperiyasi" deb ataluvchi davlatga asos solindi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *“Tarixi Turkiston”, 178-bet.*
2. *N.K.Romanov, “Amu i Uzboy”, Samara, 1879, str. 1-2.*
3. *N. K. Romanov, “Amu i Uzboy”, Samara, 1879, str.3.*
4. *The History of India by H.M. Elliot, II-tom, 399-bet.*
5. *A.O`rinboyev, Abdurazzoq Samarqandiy va uning Hindiston safari, “O`zbekiston madaniyati”, 1958 yil 2 iyul.*
6. *A.O`rinboyev, Abdurazzoq Samarqandiyning safarnomasi, O`zbekiston Fanlar Akademiyasi nashriyoti, 1960, 46 -47-betlar.*
7. *The History of India, by H? Elliot, IV tom, 101-102-betlar.*